

ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH JARAYONIDA TA’LIM SIFATI MUAMMOLARI

Andijon davlat Pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrası 1-kurs
magistranti Karimova Azizaxon Avazbek qizi
karimovaazi91@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19452996>

Annotatsiya: Mazkur maqola zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish mobaynida vujudga kelishi mumkin bo’lgan ta’limdagi muammolarni tahlil qilishga yo’naltirilgan. Tadqiqotimizda raqamli transformatsiyaning ta’lim tizimidagi samaradorlikka ta’siri, undagi kamchiliklar va ularni oldini olishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: raqamli transformatsiya, masofaviy ta’lim, raqamli savodxonlik, pedagogik kompetentlik, innovatsion texnologiyalar, baholash tizimi

Аннотация: Данная статья посвящена анализу проблем в образовании, которые могут возникнуть при внедрении цифровых технологий в современную систему образования. В нашем исследовании обосновывается влияние цифровой трансформации на эффективность системы образования, ее недостатки и педагогические механизмы, направленные на их предотвращение.

Ключевые слова: цифровая трансформация, дистанционное обучение, цифровая грамотность, педагогическая компетентность, инновационные технологии, система оценивания.

Bugungi tez suratda rivojlanayotgan davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezlikda o’sib borishi ta’lim tizimini ham modernizatsiya qilishni taqazo etmoqda. Raqamli ta’lim ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o’quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda o’qituvchilarning pedagogik faoliyatini yengillashtirishning eng muhim vositasiga aylanmoqda. Sh.M. Mirziyoyev o’zining “Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” nomli asarida mamlakatimizning taraqqiyoti uning boshqa davlatlar bilan raqobatlasha olishi yetarli darajada kadrlarni yetishtirish uchun muhim yo’nalishlaridan biri sifatida zamonaviy, raqamli va innovatsion ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan.[1] Shuningdek, “O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 5847-son Farmonida “talabalar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida oliy ta’lim tizimida asosiy o’quv dasturlariga doimiy o’zgartirishlar kiritish; ta’limda multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni qo’llash jarayonini tizimli tashkil etish choralarini ko’rish; umumiy o’rta ta’lim maktablarida informatika fanini o’qitish metodlarini takomillashtirish; oliy ta’lim muassalarida “Bir million dasturchi” loyihasini keng hududda joriy qilish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish; ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarni onlayn kuzatish va o’zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek, ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi “EMINBAR” platformasini amaliyotga joriy etish, ta’lim jarayonlarida “Bulutli texnologiyalar”dan foydalanish” kabi ustuvor vazifalar belgilab qo’yilgan. Biroq, ularning joriy etilishi ham o’ziga xos bir qator ta’limning sifatiga muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Raqamli texnologiyalar-bu kompyuterlar, mobil qurilmalar, sun’iy intellektlar, dasturiy mahsulotlar va internet vositalari orqali ta’lim tizimini tashkil etish va boshqarish tizimidir.

Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar ta’lim sifati, tezligi uzluksizligi va interaktivligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Eski ta’lim jarayonimizda asosiy darslik auditoriya bilan chegaralangan bo’lsa, bugungi kunda esa internet tarmog’i bilan xoxlangan manbaga darsga leksiyaga bemalol kira olamiz.

Raqamli texnologiyalar yordamida o’quvchilar ko’proq mustaqil o’qishga, o’z bilimlarini baholashga, rivojlantirishga ega bo’lishadi va buning natijasida pedagoglarga ham darsning yana ham samaraliroq tashkil etishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar haqidagi olimlarning fikrlari va bir nechta nazariyalarni ko’rib chiqamiz:

TPACK modeli (Mishra va Koehler) nazariyaga ko’ra, ta’lim sifati — texnologik, pedagogik va mazmunli (fanga oid) bilimlarning uyg’unlashishida shakllanadi.[2] SAMR modeli (Ruben Puentedura)ning mazmuni texnologiyaning darsga ta’sirini 4 bosqichga (Almashtirish, To’ldirish, O’zgartirish va Qayta yaratish) bo’ladi.[3] UNESCO "Olti ustun" ramkasi modeli esa “Raqamli transformatsiyaning sifatli bo’lishi uchun faqat infratuzilma emas, balki boshqaruv, o’qituvchilar salohiyati, kontent sifati va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar uyg’un bo’lishi shart” degan nazariyani ilgari suradi.[4]

O’zbekistonlik olimlar ya’ni Mahalliy tadqiqotlarda (masalan, R.M. Saparniyazova I.P. Khuramov) raqamli texnologiyalar o’quvchilarni kasbga yo’naltirish va sun’iy intellekt orqali shaxsiylashtirilgan ta’limni tashkil etishda muhimligi, biroq metodik ta’minotning yetishmasligi sifatga salbiy ta’sir qilayotgani qayd etilgan.[5] O.A. Qo’ysinovning raqamli kompetensiya va kreativlik bo’yicha tadqiqotlar markazida o’qituvchining raqamli kompetentligi dars sifati kafolati sifatida qaraladi ya’ni oliy ta’limda sifat muammosi bevosita professor-o’qituvchilarning "raqamli kreativligi" bilan bog’liq deb tushuniladi.[6] M.H. Lutfillayev raqamli texnologiyalar yordamida virtual laboratoriyalar va masofaviy o’qitish modellarini yaratish bo’yicha nazariy maktab yaratgan. Bunga ko’ra ta’lim sifati talabaning o’quv jarayonidagi "interaktiv mustaqilligi" orqali belgilanadi va buning natijasida raqamli muhit talabani passivdan faol tadqiqotchiga aylantirishi mumkin.[7] R.Hamdammovning tadqiqotlaridagi asosiy qarashi shundan iboratki, “Ta’lim sifati— bu ochiq axborot resurslarining (OER) ochiqligi va ularning ekspertizadan o’tganligiga bog’liq” degan nazariyani ilgari suradi.[8]

Yuqoridagi olimlarning nazariyalaridan xulosa qilgan holda bilimlarning umumlashtirsak, raqamli texnologiya jamiyatimiz bilan chambarchas uzviy bog’liq va har vaqt yangiliklarga nisbatan o’zimizda kompetentlikni shakllantirishlikni taqazo etmoqda.

Ta’lim tizimidagi raqamli texnologiyalardan foydalanish bilimining o’quvchi va pedagoglarda yetishmasligi, ya’ni har qanday yangilikni qo’llash uchun uning bilimni egallanmaganligi, amaliyotda uni qo’llay olisligi, talaba va o’qituvchilarda tayyor ma’lumotlar bazasidan foydalanishi natijasida fikrlashning pastlashishi, ekran qarshisida doimiy o’tirish tufayli tayanch harakat sistemasi hamda bilim olish samaradorligini pasayishiga ham olib keladi, ma’lumotlar bazasining ko’pligi va ularning barchasi ham ilmiylik darajasiga ega emasligi ta’limning sifat ko’rsatkichlariga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Raqamli texnologiyalarni dars jarayonidagi kamchiliklarini ham ko’rib chiqamiz: bular texnik vositalarning har doim ham mavjud emasligi, ya’ni zamonaviy kompyuterlar, yuqori tezlikdagi internet tarmog’i va raqamli platformalarning kamligi yoki yetishmasligi sababli talaba o’quvchilar to’liq raqamli ta’limdan foydalanaolmasligi natijasida ta’lim sifatining sustlashishiga olib keladi. Bundan tashqari, metodik yondashuvning yetmasligi, har doim ham an’anaviy o’qitish jarayonimizdagi usullar raqamli ta’lim

muhitiga mos kelavermasligi o‘quv dasturlari, interaktiv metodikalar, electron darsliklar va multimedia vositalarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ham ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Eng asosiylaridan biri o‘quvchilarning mas’uliyatsizligi, ijtimoiy muloqotning yo‘qligi va ta’lim sifatiga bo‘lgan ishonchsizliklar natijasida raqamli platformalardan to‘liq foydalanaolmasligi tufayli sifat ko‘rsatkichlarimiz pasayishiga sabab bo‘lib kelmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, davlatimizning rivojlanayotgan davlatlar qatorida bo‘lishi uchun say harakatlarining negizi ta’lim tizimiga taqaladi, hamda raqamli texnologiyalar kundan kunga jadallashyotgan davrda har bir talaba, kadr hamda pedagoglardan bu bilimlarni o‘zlashtirishi, kompyuter savodxonligi ustidagi kompetentligini rivojlantirish talab etmoqda. Ta’lim tizimimiz sifatiga salbiy ta’sir o‘tkazyotgan muammolar ustida ishlashimiz uni oldini olishimiz biz bo‘lajak kadrlarning zimmamizda hisoblanadi. Davlatimiz tomonidan berilayotgan e’tibor, xalqaro hamkorlik, texnik bazaning mustahkamlanishi va IT sohasidagi milliy kadrlar tayyorlash orqali bu muammolar bartaraf etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev o‘zining “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” nomli asari
2. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son Farmoni
3. Mishra, P., Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record.
4. Puentedura, R. R. (2010). SAMR: A brief introduction. Hippasus.
5. UNESCO (2018). UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. Paris, UNESCO.
6. Qo‘ysinov O.A. (2021). Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik kreativligini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari.
8. Lutfillayev M.H. (2006). Oliy ta’lim o‘quv jarayonini kompyuter texnologiyalari asosida takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti
9. Hamdamov R. va boshqalar. (2010). Ta’limda axborot texnologiyalari. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.